

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Difuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



QAYTA ISHLASH SANOATI KORXONLARINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI



Gulxayo Abduxamidova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizdagi qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari, qayta ishlash sanoati korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish, klaster tizimining iqtisodiy samaradorligi, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini amaliyotga tatbiq etish, qayta ishlash sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, SWOT-KPI baholash mezonlarini amaliyotga tatbiq etish, raqamli texnologiyalar asosida yangi innovatsion yondoshuvlarni tashkil etish hamda klaster tizimiga asoslangan innovatsion boshqaruv jarayonini takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qayta ishlash sanoati, klaster, iqtisodiy samaradorlik, xorijiy tajriba, innovatsion boshqaruv, raqamli texnologiya, saradorlikni oshirishning zamonaviy yo'llari.

Аннотация: В данной статье рассмотрены современные пути повышения экономической эффективности предприятий обрабатывающей промышленности в нашей стране, развитие предприятий перерабатывающей промышленности на основе кластерной системы, экономическая эффективность кластерной системы, внедрение опыта развитых зарубежных стран, повышение экономической эффективности в предприятия перерабатывающей промышленности, внедрение критериев оценки SWOT-KPI на практике Разработаны научно обоснованные рекомендации по вопросам создания новых инновационных подходов на основе цифровых технологий и совершенствования процесса управления инновациями на основе кластерной системы.

Ключевые слова: перерабатывающая промышленность, кластер, экономическая эффективность, зарубежный опыт, инновационный менеджмент, цифровые технологии, современные пути повышения эффективности.

Abstract: In this article, modern ways of increasing the economic efficiency of processing industry enterprises in our country, development of processing industry enterprises based on the cluster system, economic efficiency of the cluster system, implementation of the experience of developed foreign countries, increasing economic efficiency in processing industry enterprises, implementation of SWOT-KPI evaluation criteria in practice Scientifically based recommendations were developed on the issues of creating new innovative approaches based on digital technologies and improving the innovation management process based on the cluster system.

Key words: processing industry, cluster, economic efficiency, foreign experience, innovative management, digital technology, modern ways of improving efficiency.

KIRISH

Buguni kunda qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish hamda qayta ishlash salohiyatini takomillashtirish iqtisodiyot sohasidagi hal qilinishi lozim bo'lgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizdagi qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish va qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarni qayta ishlash imkoniyatlarini tubdan takomillashtirishga qaratilgan bir qator yangi amaliy islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, qayta ishlash sanoati va qishloq xo'jaligi sohalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lganligi uchun ham mamlakatimizda 2020–2030-yillarga mo'ljallangan qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi. Ushbu strategiyani ishlab chiqilganligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda qayta ishlash sanoati korxonalariga uzliksiz mahsulotlarni yetkazib berishga qaratilgan yangi imkoniyatlar ekanligidan dalolat beradi.



"O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoniga ko'ra, quyidagi masalalar Strategiyani amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan:

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;
- qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;
- qishloq xo'jaligida ilmiy-tadqiqot, ta'lim va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilim va ma'lumotlarni tarqatishning samarali shakllarini qo'llashni nazarda tutuvchi ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish ^[1] kabi ustuvor masalalar keltirib o'tilgan.

Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizdagi qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llaridan biri qayta ishlash sanoati korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish bo'lib, klaster tizimini rivojlantirish orqali korxonalardagi mavjud texnologiyalar va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi hamda klaster tizimini kengaytirish esa qayta ishlash sanoati korxonalarni iqtisodiy saradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

ILMIY MUAMMONING QO'YILISHI

Qayta ishlash sanoati hamda qishloq xo'jaligi sohasida klasterlarni tashkil etish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, klasterlarni rivojlantirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini klasterlash borasida xorijiy tadqiqotchilardan biri Ye.Ivanova yondoshuviga ko'ra Rossiya davlati miqyosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini klasterlash jarayonini takomillashtirishga e'tibor qaratilgan ^[3].

E.Karpichevning ilmiy izlanishlariga ko'ra, qayta ishlash sanoati korxonalari o'rtasida klaster subyektlarini iqtisodiy va innovatsion hamkorlik hamda sanoat klasterlarini innovatsion jihatlarini bo'yicha izlanishlar olib borgan ^[4].

P.Muxsinovning tadqiqotlariga ko'ra, hududlardagi qayta ishlash sanoatiga ixtisoslashgan korxonalarni klaster yondoshuvi asosida rivojlantirish borasida izlanishlar olib borgan ^[5].

O'zbekistonda ham klaster tizimini rivojlantirish bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlarimiz tadqiqot ishlari olib borgan. Jumladan, I.S.Ochilov va B.K.Abdumuminovlar klaster tizimida innovatsion samaradorlikka erishish masalalari va innovatsion samaradorlikni oshirish chora-tadbirlariga e'tibor qaratishgan ^[6].

T.T.Jo'rayev va M.E.Hamidovlar qishloq xo'jaligi sohasida klasterlarning iqtisodiyotdagi ahamiyati, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi taraqqiyotida klasterlarining tutgan o'rni, o'ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha izlanishlar olib borishgan ^[7].

Yuqorida keltirilgan xorijiy va maxalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida asosan qishloq xo'jaligi sohasida klaster tizimini rivojlantirish hamda takomillashtirish masalalari o'rganilgan.

Biroq, qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari, klaster tizimining yangi imkoniyatlari hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan klaster tizimining aniq innovatsion yechimlari yetarlicha o'rganilmagan. Shuning uchun ham, qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etmoqda. Ushbu jihatlarini ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini belgilab beradi hamda tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mantiqiy fikrlash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil, abstrakt fikrlash hamda ilmiy umumlashtirish kabi usullardan keng foydalanilgan. Mavjud metodologik yondoshuvlarga tayangan holda, qayta ishlash sanoati korxonalarini o'rganish asosida olib borilgan ilmiy natijalar uyg'unlashtirilgan.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, muhtaram Prezidentimiz tomonidan qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirish borasida bir qator Farmonlar qabul qilinib, sohani rivojlantirishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash



to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi "Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5708-sonli Farmonlarida ^[2]

- qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotishda zamonaviy kooperatsiya munosabatlarini kengaytirish orqali qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining qo'shilgan qiymati zanjiri yaratilishini rag'batlantirish;
- agrobiznesning klaster modelini keng joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, klasterlash jarayonining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish borasida ko'plab imkoniyatlar yaratib berilmoqda.


Mamlakatimizda qayta ishlash sanoati hamda qishloq xo'jaligi sohasida klasterlarni tashkil etish, xususan, qayta ishlash sanoati korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun juda katta zamonaviy va innovatsion yangi imkoniyatlar mavjud. Undan samarali foydalanish qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarga yangi innovatsion ustunliklarni beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qayta ishlash sanoati yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalarni klaster tizimi asosida rivojlantirishda bugungi kunda bir qator kamchiliklari mavjud, jumladan:

- qayta ishlash sanoati korxonalarida klaster tizimidan samarali foydalanish bo'yicha aniq tizim shakllanmagan. Masalan, Germaniya davlatida qayta ishlash sanoati korxonalarida zamonaviy innovatsion boshqaruv tizimi mavjud bo'lib, bizda esa qayta ishlash sanoati korxonalarida zamonaviy innovatsion boshqaruv tizimi aniq dasturlar asosida tashkil etilmagan;
- mahsulotni saralash, qadoqlash, qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha agrologistika markazlari tashkil etilishiga qaramasdan, qayta ishlash sanoati korxonalarida klaster tizimini rivojlantirmayotganligi, faqatgina yirik korxonalarda klaster tizimini ishlayotganligi zamonaviy yo'llarni tashkil etilmaganligidan dalolat beradi;
- qayta ishlash sanoati korxonalarida klasterlarni rivojlantirish bo'yicha yangi dasturlarni tashkil etilmayotganligi, faqatgina yirik korxonalar faoliyati bilan cheklanib qolganligi natijasida tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilmaganligi hamda tarmog'ni monopollashuviga olib kelmoqda;
- klaster tizimida mahsulot yetishtiruvchilar, qayta ishlovchilar va boshqa yirik korxonalar o'rtasidagi o'zaro zamonaviy dasturlar asosida tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning yetarli darajada mukammal emasligi va uni takomillashtirish zarurligi hal qilinishi lozim bo'lgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etilishi qayta ishlash sanoati korxonalaridagi iqtisodiy samaradorlikni oshirishga va zamonaviy innovatsion imkoniyatlarni kengayishiga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishda mualliy tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi zamonaviy yo'llarini amaliyotga keng tatbiq etish qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yechimlar hisoblanadi.




1-rasm: Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari¹

1 Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

Bundan ko'rinadiki, 1-rasmda qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirish qaratilgan 4 ta zamonaviy yo'llari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bugungi kunda amaliyotda ularni keng joriy etish qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlaydi. Chunki, birinchidan, amaliyotda klaster tizimidan samarali foydalanish bo'yicha aniq innovatsion boshqaruv tizimi rivojlanmagan, ikkinchidan, korxonalarda zamonaviy SWOT-KPI baholash tizimi umuman yo'lga qo'yilmagan, uchinchidan, innovatsion raqamli dasturlardan samarali foydalanish imkoniyatlari takomillashmagan, to'rtinchidan, qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholashning innovatsion dasturini ishlab chiqishmagan. Shuning uchun ham, muallif tomonidan taklif etilayotgan ushbu zamonaviy yo'llardan amaliyotda samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy barqarorligini yuqori sur'atlarda oshirishini ta'minlaydi.

Qolaversa, qayta ishlash sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning 5-zamonaviy yo'li sifatida muallif tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi 2-rasmda keltirib o'tilgan qayta ishlash sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning innovatsion yondoshuvlari hisoblanadi.



2-rasm: Qayta ishlash sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning innovatsion yondoshuvlari²

Bundan ko'rinadiki, qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llaridan yana biri sifatida 2-rasmda keltirib o'tilgan qayta ishlash sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning innovatsion yondoshuvlari bo'lib, ushbu yondoshuvlar o'z ichiga 6 ta jarayonlarni qamrab olgan. Ushbu jarayonlarni amaliyotga keng tatbiq etish qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki, amaliyotda 2-rasmda ko'rsatib o'tilgan jarayonlar umuman uchramaydi. Shuning uchun ham, ular yangi innovatsion yechimlar bo'la oladi.

Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, yuqori darajada innovatsion-iqtisodiy samara beradigan qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llarini tashkil etish uchun muallif tomonidan ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish eng muhim innovatsion yechim hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llarini rivojlantirishda quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak deb hisoblaymiz, jumladan:

- qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini rivojlantirish uchun klaster tizimiga asoslangan zamonaviy innovatsion boshqaruv tizimini yuritish;

² Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.



- xorijiy davlatlar tajribasidagi innovatsion yangiliklarni keng joriy qilish orqali qayta ishlash sanoati korxonalarida iqtisodiy barqarorlikni yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlash;
- klaster faoliyatida ishtirok etuvchi subyektlar o'rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirishda barcha ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bosqichlarda teng adolatli o'zaro foydalilik tamoyillariga asoslangan yagona klaster uyushmasini tashkil etish;
- qayta ishlash sanoati korxonalarida iqtisodiy samardorlikni oshirishda SWOT-KPI baholash mezonlarini amaliyotga keng tatbiq etish;
- yagona klaster uyushmasini tashkil etish bo'yicha asoslangan takliflarni qonun hujjatlari loyihasiga kiritishdan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga keng joriy etilishi natijasida, qayta ishlash sanoati korxonalarida iqtisodiy samardorlikni oshirishning zamonaviy yo'llari hamda yangi innovatsion-iqtisodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi "Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5708-sonli Farmoni.
3. Иванова Екатерина Викторовна. "Формирование и развитие агропродовольственных кластеров в условиях политики импортозамещения" Диссертация, Мичуринск-2018 йил.
4. Карпичев Евгений Владимирович. "Механизмы управления инновационной кооперацией субъектов промышленных кластеров" Диссертация, Санкт-Петербург-2019 йил.
5. Мухсинова Парвина Абдулкосимовна. "Развитие легкой промышленности региона на основе кластерного подхода" (на материалах Согдийской области Республики Таджикистан) Диссертация, Душанбе-2020 йил.
6. I.S.Ochilov, B.K.Abdumuminov. Klaster tizimida innovatsion samardorlik masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019 yil 1-bet.
7. T.T.Jo'rayev va M.E.Hamidov. O'zbekistonda agrosanoat klasterlarinig rivojlanishi va ularning qishloq xo'jaligi taraqqiyotida tutgan o'rni. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2019 yil 3-bet.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

